

MILLIY IQTISODIYOTDA INVESTITSION JOZIBADORLIKNI OSHIRISH OMILLARI VA STRATEGIYALARI

Tillayeva Barno Ramizitdinovna

Toshkent davlat texnika universiteti,

“Sanoat iqtisodiyoti va menejmenti” kafedrası dotsenti

ORCID: 0009-0007-3604-205X

E-mail: barnotillayeva78@gmail.com

Annotatsiya

Mazkur tadqiqotda milliy iqtisodiyotda investitsion jozibadorlikni oshirish omillari va strategik yo‘nalishlari tahlil qilindi. Investitsion muhitni shakllantiruvchi asosiy komponentlar sifatida makroiqtisodiy barqarorlik, institutsional sifat, infratuzilma rivojlanganligi, inson kapitali darajasi va innovatsion salohiyat baholandi. Tahlil Dunningning OLI paradigmasi hamda Porterning raqobatbardoshlik nazariyasi asosida amalga oshirildi. UNCTAD, Jahon banki, IMF va milliy statistika ma’lumotlari asosida O‘zbekistonda investitsion faollik dinamikasi o‘rganildi. Natijalar investitsion oqimlarni kengaytirishda huquqiy muhitni takomillashtirish, raqamli transformatsiyani jadallashtirish, klaster siyosatini rivojlantirish va soliq rag‘batlarini qo‘llash muhim ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatdi. Tadqiqot milliy iqtisodiyotda investitsion salohiyatni oshirishga qaratilgan ilmiy xulosalarni shakllantirdi.

Kalit so‘zlar: investitsion jozibadorlik, OLI paradigmasi, institutsional muhit, inson kapitali, raqamli transformatsiya, klaster siyosati, milliy iqtisodiyot, strategik boshqaruv, FDI.

Аннотация

В исследовании проанализированы факторы и стратегические направления повышения инвестиционной привлекательности национальной экономики. В качестве ключевых компонентов инвестиционной среды рассмотрены макроэкономическая стабильность, институциональное качество, уровень развития инфраструктуры, человеческий капитал и инновационный потенциал. Анализ проведён на основе парадигмы OLI Дж. Даннинга и теории конкурентоспособности М. Портера. С использованием данных ЮНКТАД, Всемирного банка, МВФ и национальной статистики изучена динамика инвестиционной активности в Узбекистане. Результаты показали, что совершенствование правовой среды, ускорение цифровой трансформации, развитие кластерной политики и применение налоговых стимулов оказывают существенное влияние на расширение инвестиционных потоков. Исследование сформировало научные выводы по повышению инвестиционного потенциала национальной экономики.

Ключевые слова: инвестиционная привлекательность, парадигма OLI, институциональная среда, человеческий капитал, цифровая трансформация, кластерная политика, национальная экономика, стратегическое управление, ПИИ.

Abstract

The study analyzed factors and strategic directions for increasing investment attractiveness in the national economy. Macroeconomic stability, institutional quality, infrastructure development, human capital level, and innovation potential were assessed as key components shaping the investment environment. The analysis was conducted using Dunning's OLI paradigm and Porter's competitiveness theory. Data from UNCTAD, the World Bank, the IMF, and national statistics were used to examine the dynamics of investment activity in Uzbekistan. The results showed that improvement of the legal environment, acceleration of digital transformation, development of cluster policy, and application of tax incentives significantly influenced the expansion of investment flows. The research formulated scientific conclusions aimed at strengthening the investment potential of the national economy.

Keywords: investment attractiveness, OLI paradigm, institutional environment, human capital, digital transformation, cluster policy, national economy, strategic management, FDI.

KIRISH

Global iqtisodiyotning tobora ortib borayotgan raqobat sharoitida davlatlarning uzoq muddatli taraqqiyoti ko'p jihatdan xorijiy va ichki kapitalning samarali jalb etilishiga bog'liq. Investitsiyalar - bu nafaqat resurslar oqimi, balki texnologik bilimlar, menejment madaniyati va tashqi bozor imkoniyatlarini mamlakat ichiga tortishning asosiy vositasidir. Shu nuqtai nazardan, investitsion jozibadorlikni tizimli baholash va uni oshirishga qaratilgan strategiyalarni ishlab chiqish hozirgi iqtisodiy fan oldida turgan muhim ilmiy masalalardan biri hisoblanadi[3].

O'zbekiston 2017-yildan boshlab amalga oshirayotgan tizimli islohot jarayoni, ayniqsa 2022-yilda qabul qilingan «Yangi O'zbekiston» taraqqiyot strategiyasi [21] investitsion faollikni rag'batlantirishni ustuvor yo'nalish sifatida belgilaydi. UNCTAD ma'lumotlariga ko'ra, 2022-yilda O'zbekistonga kirib kelgan to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar (TXI) hajmi 3,8 milliard AQSh dollarini tashkil etgan bo'lib, bu 2017-yilga nisbatan 2,4 baravar yuqori ko'rsatkichdir [3].

Shu bilan birga, investitsion faollikning o'sishi barqaror va tizimli xarakter kasb etishi uchun yuzaki ko'rsatkichlarga tayanib qolish yetarli emas. Jalb etilgan kapitalning sifati, uning iqtisodiy o'sishga ko'chishi va tarmoqlararo multiplikativ ta'siri - bular investitsion siyosatning strategik maqsadlarini tashkil etadi. Aynan shu jihat investitsion jozibadorlikni faqat moliyaviy ko'rsatkichlar orqali emas, balki institutsional, infratuzilmaviy va inson kapitali omillarining murakkab o'zaro ta'siri kontekstida ko'rib chiqish zaruratini yuzaga keltiradi.

Mavjud ilmiy adabiyotlarda Dunning [1], Porter [2], Alfaro va boshqalar [6], Borensztein va boshqalar [7] kabi olimlarning asarlari investitsion jozibadorlik nazariyasining muhim qatlamlarini tashkil etadi. Biroq O'zbekiston kabi o'tish iqtisodiyoti mamlakatlariga nisbatan bu konseptual apparatni moslashtirilgan holda qo'llash va hozirgi ijtimoiy-iqtisodiy sharoitga adekvat strategik tavsiyalar ishlab chiqish bo'yicha ilmiy izlanishlar hali to'la yetukligiga erishmagan.

Ushbu tadqiqot investitsion jozibadorlikni oshirishning nazariy asoslarini, uni belgilovchi omillarni va ulardan kelib chiquvchi strategik yoʻnalishlarni tizimli tarzda tahlil etishga qaratilgan. Natijada milliy iqtisodiyotning investitsion salohiyatini kengaytirishga xizmat qiluvchi ilmiy asoslangan tavsiyalar shakllantirilgan.

ADABIYOTLAR SHARHI

Xorijiy toʻgʻridan-toʻgʻri investitsiyalar (TXI) nazariyasida eng nufuzli konseptual asoslardan biri John Dunning tomonidan ishlab chiqilgan «Eklektik paradigma» yoki OLI (Ownership, Location, Internalization) modelidir. [1] Ushbu model multinatsional korporatsiyalarning xorijiy bozorlarga kirishini uch asosiy afzallik - mulkchilik, joylashuv va ichkilashtirish afzalliklari - kombinatsiyasi orqali tushuntiradi. Joylashuv afzalligi (L-afzallik) bevosita qabul qiluvchi mamlakat investitsion jozibadorligining koʻrsatkichi boʻlib, tabiiy resurslar, bozor hajmi, mehnat xarajatlari va institutsional sifat kabi omillarni oʻz ichiga oladi.

Michael Porter [2] raqobatbardoshlik olmosining toʻrt komponenti - omil sharoitlari, talab sharoitlari, tegishli va qoʻllab-quvvatlovchi tarmoqlar hamda firma strategiyasi va raqobat - investitsion jozibadorlikni klaster va milliy raqobat qobiliyati kontekstida tahlil etishga zamin yaratadi. Porter yondashuvi boʻyicha investitsion jozibadorlik passiv xususiyat emas, balki mamlakat va tarmoqning faol ravishda shakllantira oladigan strategik resursidir.

Asiedu [12] rivojlanayotgan mamlakatlar kontekstida TXI ni belgilovchi omillarni oʻrganib, infratuzilma sifati va ochiq savdo siyosatining kapital jalb etishdagi ahamiyatini empirik tarzda isbotlagan. Kolstad va Villanger [8] xizmatlar sohasidagi TXIni tahlil qilib, bozor hajmi va institutsional sifat kombinatsiyasini ustuvor determinant sifatida koʻrsatgan.

Bénassy-Quéré va boshqalar [9] milliy institutlar sifati va investitsiya oqimlari oʻrtasidagi munosabatni ekonometrik usullar orqali tadqiq etib, mulkchilik huquqlarini himoya qilish mexanizmlari va shartnomalar ijrosining samaradorligi investitsion qarorlarida hal qiluvchi roʻl oʻynashini aniqlagan. Shu bilan parallel ravishda Busse va Hefeker [10] siyosiy barqarorlik va TXI oʻrtasidagi kuchli ijobiy korrelyatsiyani koʻrsatib, siyosiy xavf mamlakatning barcha iqtisodiy koʻrsatkichlaridan mustaqil holda kapital oqimlarini sezilarli darajada cheklab qoʻyishini aniqlagan.

Investitsiyalarning oʻsishga taʼsiri masalasida Borensztein, De Gregorio va Lee [7] 69 rivojlanayotgan mamlakat boʻyicha oʻtkazilgan tadqiqotda TXIning iqtisodiy oʻsishga ijobiy taʼsiri inson kapitalining rivojlanish darajasiga bogʻliqligini koʻrsatgan. Alfaro va boshqalar [6] esa mahalliy moliyaviy bozorlar rivojlanganligi TXIning oʻsish effektlarini kuchaytirish yoki zaiflashtirish omili sifatida faoliyat koʻrsatishini aniqlagan.

Investitsiyalarni jalb etishning amaliy mexanizmlari nuqtai nazaridan Morisset [15] 58 mamlakat maʼlumotlarini tahlil qilib, investitsiyalarni ragʻbatlantirish agentliklari (IPA) faoliyatining samaradorligi mamlakatlardagi ish muhiti sifatiga bogʻliq ekanligini koʻrsatgan. Nunnenkamp [13] esa globallashtirish jarayonida TXIni jalb etishning «klassik» determinantlari - bozor hajmi, resurslar - oʻz muhimligini saqlab qolayotganini, biroq ularga qoʻshimcha ravishda yangi omillar - axborot-

kommunikatsiya infratuzilmasi, davlat boshqaruvinining shaffofligi - tobora kuchayib borayotganini ta'kidlaydi.

OECD [11] investitsion tartibga solishning cheklovchanligi indeksi orqali mamlakatlararo taqqoslashlarni amalga oshiradi va liberallashtirish darajasi yuqori mamlakatlar TXI hajmi bo'yicha ancha oldinda ekanligini ko'rsatadi. EBRD [25] hisobotiga ko'ra, O'tish iqtisodiyoti mamlakatlarida moliya sektori chuqurlashuvi va huquq-tartibotning yaxshilanishi investitsion iqlimni tezda sezilarliroq ijobiy yo'nda o'zgartira oluvchi eng qisqa muddatli islohotlar jumlasiga kiradi.

Iqtisodiy adabiyotlarda alohida tadqiqot yo'nalishlarini tashkil etuvchi Hymer [16] ning internalizatsiya nazariyasi va Vernon [17] ning mahsulot hayot sikli modeli TXIning tarixiy shakllanish bosqichlarini tushuntiradi. Biroq hozirgi globallashuv va raqamli iqtisodiyot sharoitida bu nazariyalar yangi tarkibiy omillar - platformali iqtisodiyot, intellektual mulkka investitsiyalar, ma'lumotlar iqtisodiyoti - bilan boyitilishi zarur.

Lipsev [19] va Helpman [23] multinatsional korporatsiyalar faoliyatini uy va qabul qiluvchi mamlakat iqtisodiyotiga ta'siri nuqtai nazaridan tahlil etib, kapital oqimlarining ikki tomonlama foydasi va salbiy ta'sirlarini muvozanat holatida baholash metodologiyasini ilgari surgan. Demirhan va Masca [14] rivojlanayotgan mamlakatlar bo'yicha o'tkazgan kross-seksion tahlillarda bozor o'sish sur'atlari, telekommunikatsiya infratuzilmasi va savdo ochiqligi indekslarining TXI bilan kuchli statistik bog'liqligini aniqlagan.


METODOLOGIYA

Tadqiqotda investitsion jozibadorlikni shakllantiruvchi omillarni aniqlash va ularning milliy iqtisodiyotdagi rolini baholash maqsadida tizimli va qiyosiy tahlil usullaridan foydalanildi. Tahlil Dunningning OLI paradigmasi hamda Porterning raqobatbardoshlik modeli asosida olib borildi. Statistik ma'lumotlar UNCTAD, Jahon banki, IMF va O'zbekiston milliy statistika manbalaridan olindi. 2015-2023 yillar bo'yicha investitsiya oqimlari dinamikasi, TXI hajmi va makroiqtisodiy ko'rsatkichlar o'rganildi. Makroiqtisodiy barqarorlik, institutsional muhit, infratuzilma darajasi va inson kapitali ko'rsatkichlari alohida baholandi. Ma'lumotlar qiyosiy tahlil va umumlashtirish usullari orqali qayta ishlanib, investitsion jozibadorlikni oshirishga ta'sir etuvchi asosiy omillar aniqlashtirildi. Olingan natijalar investitsion siyosatning ustuvor yo'nalishlarini aniqlashga xizmat qildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

UNCTAD 2023-yil Jahon investitsiyalar hisoboti^[3] ma'lumotlariga ko'ra, 2022-yilda jahon bo'yicha TXI hajmi 1,3 trillion AQSh dollarini tashkil etib, 2021-yilga nisbatan 12 foizga kamaygan. Biroq rivojlanayotgan va o'tish iqtisodiyoti mamlakatlariga yo'naltirilgan kapital oqimlari nisbiy barqarorligini saqlab qolgan, bu esa ushbu mamlakatlar investitsion jozibadorligini strategik jihatdan muhim masalaga aylantiradi.

Investitsion jozibadorlikni shakllantirishda ishtirok etuvchi omillarni tahlil etish natijasida ushbu omillar o'rtasida quyidagi funksional bog'liqlik aniqlandi: makroiqtisodiy barqarorlik investitsion qarorlar uchun zaruriy, biroq yetarli bo'lmagan shart bo'lib, institutsional sifat va infratuzilma omillari keyingi darajadagi differenziatsiyalovchi omillar sifatida faoliyat ko'rsatadi.



1-rasm. Milliy iqtisodiyotda investitsion jozibadorlikni oshirish: omillar va strategiyalar tizimi¹

1-rasmida tasvirlangan konseptual model investitsion jozibadorlikni oshirishning ikki qatlamli tuzilmasini aks ettiradi. Chap qatlamda kiruvchi omillar - moliyaviy barqarorlik, huquqiy muhit, infratuzilma va inson kapitali - joylashtirilgan bo'lib, ular investitsion jozibadorlik indeksiga bevosita ta'sir etadi. O'ng qatlamda esa bu omillarga strategik javob beradigan qisqa va o'rta muddatli siyosat vositalari - soliq siyosati, raqamli islohotlar, klaster siyosati va institutsional islohotlar - o'rin olgan.

1-jadval.

O'zbekistoning asosiy investitsion jozibadorlik ko'rsatkichlari dinamikasi (2018-2023 yillar)²

Ko'rsatkich	2018-yil	2019-yil	2020-yil	2021-yil	2022-yil
TXI hajmi (mlrd. AQSh dollar)	2,1	2,4	1,6	2,6	3,8
TXI / YaIM nisbati, foizda	4,1	4,6	3,2	4,4	5,9
Doing Business reytingi (o'rin)	76	69	69	69	-
Inflyatsiya darajasi, foizda	17,5	15,2	12,9	10,8	11,4
ADB ishbilarmonlik iqlimi indeksi	53,2	56,7	55,1	58,3	61,0

¹ Muallif ishlanmasi

² UNCTAD [3], O'zbekiston Respublikasi Milliy Statistika qo'mitasi [20], ADB [22] ma'lumotlari asosida tuzilgan.

1-jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, O'zbekistonga kirib kelayotgan TXI hajmi 2018-2022 yillar oralig'ida o'rtacha yiliga 15-18 foiz o'sish sur'atini ko'rsatgan (2020-yilgi global pandemiya ta'siri bundan mustasno). Iqtisodiyotning YaIMga nisbatan TXI ulushi 4,1 foizdan 5,9 foizga yetib, mamlakatning investitsion salohiyatiga bo'lgan ishonch mustahkamlanib borayotganidan dalolat beradi. [20]

Shu o'rinda ta'kidlash joizki, investitsion jozibadorlikning yaxshilanishi faqat miqdoriy ko'rsatkichlarga emas, balki sifatiy o'zgarishlarga ham bog'liq. EBRD [25] ning 2023-2024 yillar uchun «O'tish hisoboti» O'zbekiston moliya sektori, raqamli infratuzilma va yashil iqtisodiyot yo'nalishlarida sezilarli o'sish imkoniyatlarini qayd etadi. Biroq shu bilan birga regulyatorlik noaniqliklarining ba'zi sohalarida hali ham investorlar uchun to'siq sifatida qolayotganligi ham ta'kidlanadi.

Investitsion jozibadorlikning institutsional komponentini baholashda Benassy-Quere va boshqalar [9] metodologiyasi asosida O'zbekistondagi mulkchilik huquqlari muhofazasi va shartnomalar bajarilishining so'nggi yillardagi ijobiy yo'nalishdagi o'zgarishlari qayd etiladi. Jumladan, 2022-yilda «Yangi O'zbekiston» strategiyasi [21] doirasida arbitraj mexanizmlarini takomillashtirish va investitsion nizolarni hal qilish tizimini rivojlantirish bo'yicha aniq choralar belgilangan.

Infratuzilma omili nuqtai nazaridan ADB [22] Markaziy Osiyo iqtisodiy hamkorlik dasturi (CAREC) doirasidagi transport infrastrukturasini loyihalarini ko'rib chiqib, O'zbekistonning tranzit salohiyatini oshirish yo'lidagi o'zgarishlarni ijobiy baholaydi. Transport infratuzilmasiga qilingan har 1 AQSh dollari sarmoya klasterlash effekti orqali tahlil qilingan tarmoqlarda 2,3-3,1 dollarga teng qo'shimcha xususiy investitsiya oqimini keltirib chiqarishi aniqlangan.

Inson kapitali omilini tahlil etishda Borensztein va boshqalar [7] tomonidan ilgari surilgan model - TXIning o'sishga ta'siri inson kapitalining minimal zaruriy darajasidan oshganda sezilarli darajada kuchayishi - O'zbekiston kontekstida ham o'z tasdig'ini topadi. Mamlakatda ta'lim sohasidagi islohot natijasida oliy ta'lim qamrovi 2017-yildagi 9 foizdan 2023-yilga kelib 38 foizga oshgan bo'lib, bu ko'rsatkich mamlakat qabul qilayotgan investitsiyalarning texnologik intensivligi uchun qulay zamin hozirlaydi[20].

Tarmoqlar kesimida tahlil shuni ko'rsatadiki, investitsion oqimlar kimyo sanoati, agrosanoat majmuasi va raqamli texnologiyalar sohasiga jadal suratda ko'chib kelmoqda. Ushbu tendensiya Helpman [23] taklif etgan multinatsional korporatsiyalarning gorizont va vertikal integratsiya modellari nuqtai nazaridan tahlil qilish imkonini beradi: O'zbekiston hozirda asosan «bozorni izlovchi» va «resursni izlovchi» TXIdan «samaradorlikni izlovchi» TXI formatiga o'tish bosqichida turadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Olib borilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, milliy iqtisodiyotda investitsion jozibadorlikni oshirish ko'p omilli, o'zaro bog'liq va ketma-ketlikda amalga oshiriladigan islohotlar yig'indisini talab etadi. Dunning OLI paradigmasi va Porter modeli asosida shakllantirilgan tahliliy model investitsion jozibadorlikni faqat siyosiy shiorlar yoki soliq imtiyozlari orqali emas, balki makroiqtisodiy barqarorlik,

institutsional sifat, infratuzilma rivojlanganligi va inson kapitali o'rtasidagi muvozanatli ko'tarilish orqali ta'minlash mumkinligini isbotlaydi.

Tadqiqot natijalariga asoslanib, O'zbekiston milliy iqtisodiyotida investitsion jozibadorlikni oshirishga qaratilgan quyidagi strategik takliflar ishlab chiqilgan:

1. Investitsion huquqiy modelni xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish va TXI nizolarini hal qilishda mustaqil arbitraj tizimini rivojlantirish. Benassy-Quere va boshqalar [9] empirik natijalariga ko'ra, institutsional sifatning 10 foizlik yaxshilanishi TXI oqimlarini 8-12 foizga oshirishi mumkin.

2. Raqamli iqtisodiyot infratuzilmasini rivojlantirish va e-hukumat xizmatlarining qamrovini kengaytirish. OECD [11] ma'lumotlari shuni ko'rsatadiki, raqamli infratuzilmaga sarmoyalarning 1 foizga oshishi TXIni o'rtacha 0,4-0,7 foizga oshirishi kuzatilgan.

3. Tarmoqlar va mintaqalar bo'yicha differensiallashtirilgan klaster siyosatini joriy etish hamda texnologiya transferi mexanizmlarini faollashtirish. Wheeler va Mody [18] tomonidan ishlab chiqilgan lokalizatsiya modeli klaster muhitidagi sanoat parklarining TXI jalb etishdagi multiplikativ samarasini ko'rsatadi.

4. Oliy ta'lim-sanoat-ilm-fan uchligi (triple helix) asosida inson kapitalini rivojlantirishni jadallashtirish. Borensztein va boshqalar [7] ko'rsatganlariday, inson kapitali darajasi TXI multiplikatorining asosiy katalizatori bo'lib xizmat qiladi.

5. Investitsiyalarni rag'batlantirish agentligining (IPA) vakolatlarini kengaytirish va uning faoliyati samaradorligini Morisset [15] metodologiyasiga asosan baholash tizimini joriy etish.

6. Valyuta bozori barqarorligini ta'minlash va kapital harakati bo'yicha tartibga solish to'siqlarini bosqichma-bosqich kamaytirish. Froot va Stein [24] ning tadqiqotlariga asosan, valyuta kursidagi noaniqlik investitsion qarorlarning vaqt gorizontini sezilarli darajada qisqartiradi.

Kelgusida tadqiqotni chuqurlashtirish uchun viloyatlar kesimida investitsion jozibadorlikning differensiallashuvini tahlil etish, shuningdek xizmatlar sektori va yashil iqtisodiyot yo'nalishidagi TXI dinamikasini alohida o'rganish maqsadga muvofiq. EBRD va ADB ning yashil moliyalash bo'yicha tavsiyalari O'zbekiston uchun kelajakdagi investitsion salohiyatning sezilarli qismini tashkil etishi mumkin bo'lgan yangi yo'nalishlarni belgilab beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Dunning, J.H. (2001). The Eclectic (OLI) Paradigm of International Production: Past, Present and Future. International Journal of the Economics of Business, 8(2), 173-190. <https://doi.org/10.1080/13571510110051441>

2. Porter, M.E. (1990). The Competitive Advantage of Nations. Harvard Business Review, March-April 1990. <https://hbr.org/1990/03/the-competitive-advantage-of-nations>

3. UNCTAD (2023). World Investment Report 2023: Investing in Sustainable Energy for All. United Nations Conference on Trade and Development. <https://unctad.org/wir2023>

4. World Bank (2020). Doing Business 2020: Comparing Business Regulation in 190 Economies. <https://openknowledge.worldbank.org/handle/10986/32436>
5. IMF (2023). World Economic Outlook, October 2023: Navigating Global Divergences. International Monetary Fund. <https://www.imf.org/en/Publications/WEO/Issues/2023/10/10/world-economic-outlook-october-2023>
6. Alfaro, L., Chanda, A., Kalemli-Ozcan, S., & Sayek, S. (2004). FDI and economic growth: the role of local financial markets. *Journal of International Economics*, 64(1), 89-112. [https://doi.org/10.1016/S0022-1996\(03\)00081-3](https://doi.org/10.1016/S0022-1996(03)00081-3)
7. Borensztein, E., De Gregorio, J., & Lee, J.-W. (1998). How does foreign direct investment affect economic growth? *Journal of International Economics*, 45(1), 115-135. [https://doi.org/10.1016/S0022-1996\(97\)00033-0](https://doi.org/10.1016/S0022-1996(97)00033-0)
8. Kolstad, I., & Villanger, E. (2008). Determinants of foreign direct investment in services. *European Journal of Political Economy*, 24(2), 518-533. <https://doi.org/10.1016/j.ejpoleco.2007.09.001>
9. Bénassy-Quéré, A., Coupet, M., & Mayer, T. (2007). Institutional determinants of foreign direct investment. *The World Economy*, 30(5), 764-782. <https://doi.org/10.1111/j.1467-9701.2007.01022.x>
10. Busse, M., & Hefeker, C. (2007). Political risk, institutions and foreign direct investment. *European Journal of Political Economy*, 23(2), 397-415. <https://doi.org/10.1016/j.ejpoleco.2006.02.003>
11. OECD (2023). FDI Regulatory Restrictiveness Index. Organisation for Economic Co-operation and Development. <https://www.oecd.org/en/topics/policy-issues/fdi-regulatory-restrictiveness.html>
12. Asiedu, E. (2002). On the Determinants of Foreign Direct Investment to Developing Countries: Is Africa Different? *World Development*, 30(1), 107-119. [https://doi.org/10.1016/S0305-750X\(01\)00100-0](https://doi.org/10.1016/S0305-750X(01)00100-0)
13. Nunnenkamp, P. (2002). Determinants of FDI in Developing Countries: Has Globalization Changed the Rules of the Game? Kiel Working Paper No. 1122. Kiel Institute for the World Economy. <https://www.econstor.eu/handle/10419/2797>
14. Demirhan, E., & Masca, M. (2008). Determinants of foreign direct investment flows to developing countries: a cross-sectional analysis. *Prague Economic Papers*, 17(4), 356-369. <https://doi.org/10.18267/j.pep.337>
15. Morisset, J. (2003). Does a Country Need a Promotion Agency to Attract Foreign Direct Investment? World Bank Policy Research Working Paper 3028. <https://openknowledge.worldbank.org/handle/10986/18154>
16. Hymer, S.H. (1976). *The International Operations of National Firms: A Study of Direct Foreign Investment*. MIT Press, Cambridge, MA.
17. Vernon, R. (1966). International investment and international trade in the product cycle. *The Quarterly Journal of Economics*, 80(2), 190-207. <https://doi.org/10.2307/1880689>

18. Wheeler, D., & Mody, A. (1992). International investment location decisions: The case of U.S. firms. *Journal of International Economics*, 33(1-2), 57-76. [https://doi.org/10.1016/0022-1996\(92\)90050-T](https://doi.org/10.1016/0022-1996(92)90050-T)
19. Lipsey, R.E. (2004). Home- and host-country effects of foreign direct investment. In Baldwin R.E. & Winters L.A. (Eds.), *Challenges to Globalization*. University of Chicago Press. <https://www.nber.org/books-and-chapters/challenges-globalization-analyzing-economics>
20. O‘zbekiston Respublikasi Milliy Statistika qomitasi (2023). O‘zbekiston raqamlar va faktlarda 2023. Toshkent. <https://stat.uz/uz/press-sluzhba/publications/others-publications>
21. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022 - 2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni <https://lex.uz/ru/docs/-5841063>
22. Asian Development Bank - ADB (2023). *Asian Development Outlook 2023: Toward Inclusive Green Growth*. Manila: ADB. <https://www.adb.org/publications/asian-development-outlook-2023>
23. Helpman, E. (1984). A Simple Theory of International Trade with Multinational Corporations. *Journal of Political Economy*, 92(3), 451-471. <https://doi.org/10.1086/261236>
24. Froot, K.A., & Stein, J.C. (1991). Exchange Rates and Foreign Direct Investment: An Imperfect Capital Markets Approach. *The Quarterly Journal of Economics*, 106(4), 1191-1217. <https://doi.org/10.2307/2937961>
25. EBRD (2023). *Transition Report 2023-24: Transitions Disrupted*. European Bank for Reconstruction and Development. <https://www.ebrd.com/publications/transition-report-202324>



Marketing

ilmiy, amaliy va ommabop jurnali

Muharrir: Xakimov Ziyodulla Axmadovich
Ingliz tili muharriri: Tursunov Boburjon Ortiqmirzayevich
Rus tili muharriri: Kaxramonov Xurshidjon Shuxrat o'g'li
Musahhih: Karimova Shirin Zoxid qizi
Sahifalovchi va dizaynerlar: Sadikov Shoxrux Shuxratovich
Abidjonov Nodirbek Odijon o'g'li

2026-yil, fevral, 2-son

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqola, ommabop maqola, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta: info@marketingjournal.uz
Bot: [@marketinjournalbot](https://t.me/@marketinjournalbot)
Tel.: +998977838464, +998939266610
Jurnalning rasmiy sayti: <https://marketingjournal.uz>

Marketing jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2024-yil 04-oktabrdagi 332/5 sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali 2024-yil 15-martdan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669517** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan. **Litsenziya raqami: №240874**



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnalining xalqaro darajasi: **9710**. ГОСТ 7.56-2002 "Seriya nashrlarning xalqaro standart raqamlanishi" davlatlaro standartlari talablari. **Berilgan ISSN tartib raqami: 3060-4621**